

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ZAMONAVIY TASVIRIY-PEDAGOGIK TA'LIMDA
AN'ANA VA INNOVATSIYALAR: IZLANISHLAR VA
YECHIMLAR

xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari

Buxoro – 2025

hamkorlikda ishlash natijasida bir-birini to'g'ri baholay olish, o'rtaga tashlangan muammoga birgalikda yechim topish va vaziyatga mos umumiy xulosalar qabul qiladilar. Hamkorlikni boshlang'ich sinflarda tashkil etish uchun o'qituvchidan sinfda hamkorlikda o'rganish tajribasini boshqarish, vazifalarni tuzish va o'quvchilarning salohiyatini oshirish, ularni qo'llab quvvatlash talab qilinadi. Sinfda jamoaviy ishni tuzish orqali o'qituvchilar o'quvchilarga bir-biridan o'rganish imkoniyati, tajriba o'tkazish va hamkorlik qilish kabi muhitni yaratadi.

Sinfda jamoaviy ishni tashkil etishning bir necha xil usullari mavjud bo'lib, ulardan eng samaralisi sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- Kichik guruhlarda ishlash - o'quvchilarni 3-5 kishilik guruhlariga bo'lish orqali, ularga aniq vazifalar berish.

- Rollarga ajratish – har bir o'quvchiga muayyan rol berish (masalan, lider, yordamchi, hisobot tayyorlovchi)

- Muammoli topshiriqlarni berish – o'quvchilarning birgalikda ishlashiga imkon yaratadigan ijodiy va mantiqiy vazifalar tayyorlash.

- Interaktiv o'yinlar va muhokamalar – o'yinli ta'lim metodlarini qo'llash orqali o'quvchilarning ishtirokini faollashtirish.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, hamkorlik orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida liderlik qobiliyatini rivojlanish muhim ahamiyatga ega. Hamkorlik, muloqot, tanqidiy fikrlashni va liderlik qobiliyatini rivojlantirish sinfdagi o'quvchilarni ijodiy salohiyatini ochib beruvchi va o'quv jarayonlarida faol ishtirokchiga aylanish imkonini beruvchi muhit yaratadi. Lidelik qobiliyati orqali o'quvchilar kelajak uchun muhim bo'lgan xarakterni o'zlashtiradi va turli muammolarni aqliy salohiyati orqali bartaraf etuvchi avlod bo'lib yetishishiga yordam beradi. Lidelik qobiliyati o'quvchini ijtimoiy hayotda o'zining o'rnini topib olishiga yordam berishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G.B.Saidnazarova "Tarbiya fanini o'qitish metodikasi"
2. Davletshin M.G., Do'stmuhamedova Sh., Mavlanov M., To'ychiyeva S. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya. (O'quv metodik qo'llanma). Nizomiy nomidagi TDPU. 2014.
3. Mamarasulov, A. (2019). "Yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda ta'limning o'rnini". Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
4. Mavlonova R.A, Sanaqulov X.R, Xodiyeva D.P "Boshlang'ich sinfda ta'lim usullari" -M.: MGU Vestnik, 2020.
5. Raxmonova, D. (2021). "Zamonaviy jamiyatda yoshlarning ijtimoiy integratsiyasi". Samarqand: Samarqand Davlat Universiteti ilmiy jurnali.

ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING PRAGMATIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-METODIK ASOSLARI

Olloqova O'g'iljon Mamanazarovna,

Buxoro davlat universiteti

Pedagogika kafedrası o'qituvchisi

Har qanday mazmun va shaklda bo'lmasin ta'lim-tarbiya jarayonida samarali, sifatli natijaga erishmoq uchun oldindan tarbiyalanuvchilarga qanday kompetensiyalar singdirilishini oydinlashtirib olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu sinflar kesimida ta'limning ongliklik, uzviylik va uzluksizlik, oddiydan murakkabga rivojlanib borish kabi tamoyillariga asoslangan holda belgilanadi, amalga oshiriladi. Ushbu maqsadni amalga oshirishda o'quvchilarda pragmatic kompetensiyani shakllantirish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada ona tili ta'limida o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini umumiy kompetensiyalar orqali rivojlantirish mazmuni yoritilgan.

Tayanch tushunchalar: ona tili ta'limi, pragmatik kompetensiya, umumiy kompetensiyalar, kommunikativ kompetensiya, lingvistik kompetensiya, muloqot, axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi, o'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasi, ijtimoiy faollik kompetensiyasi, milliy va

umummadaniy kompetensiya, ijtimoiy faollik kompetensiyasi, matematik savodxonlik, fan-texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi.

Mamlakatimizda har tomonlama yetuk, barkamol avlodni tarbiyalash ta'lim-tarbiya jarayonining pirovard maqsadi o'laroq belgilab olingan. Mazkur maqsad obyekti bo'lgan intellektual salohiyatli shaxs uchun kasbiy kompetentlik bilan birga umumiy kompetentlikka ega bo'lish ham muhim sifat sanaladi. Ta'lim amaliyotiga kompetentlik nuqtayi nazaridan yondashuv uzoq davr ta'lim-tarbiya jarayonida nazariy bilim berishning yetakchi mavqeda bo'lib kelgani bois amaliy ko'nikmalarning shakllanmay qolishi bilan bog'liq salbiy oqibatlarga barham beradi. "Bunda "an'anaviy ta'limda ustun bo'lgan "bilish paradigmasi" o'rniga "bilimlardan muammoli vaziyatlarda o'rinli foydalanish" paradigmasi ustunlik qilmoqda"[8]. Albatta, bunday yondashuv bilish paradigmasini inkor etmaydi, chunki har qanday amaliy faoliyat ibtidosi bilimdir. Faqat bu yondashuv uni muammoli vaziyatlarda qo'llay olish paradigmasiga bo'ysunadigan orqa plandagi paradigma maqomiga tushiradi.

Har qanday mazmun va shaklda bo'lmasin ta'lim-tarbiya jarayonida samarali, sifatli natijaga erishmoq uchun oldindan tarbiyalanuvchilarga qanday kompetensiyalar singdirilishini oydinlashtirib olish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu sinflar kesimida ta'limning onglilik, uzviylik va uzluksizlik, oddiydan murakkabga rivojlanib borish kabi tamoyillariga asoslangan holda belgilanadi, amalga oshiriladi.

Boshqa predmetlar qatori ona tili uchun fanga oid *umumiy kompetensiyalar tizimida*, avvalo, **kommunikativ kompetensiya** tilga olinadi. Bu kompetensiya ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olish, muloqot madaniyatiga amal qilish, ijtimoiy moslashuvchanlik, jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. "Kommunikativ kompetentlik "tug'ma qobiliyat bo'lmay, inson tomonidan ijtimoiy-kommunikativ tajribani egallash jarayonida shakllanuvchi qobiliyatdir. Kommunikativ-ijtimoiy tajriba, avvalo, munosabatlarni o'zgartirish mexanizmini o'z ichiga olib, nutqni stilistik jihatdan turli variantlarda qo'llashda namoyon bo'ladi" [4]. Insonning nafaqat shaxs, balki, faoliyatning subyekti sifatida to'laqonli shakllanishi uchun kommunikatsiyaning ahamiyati haqida, tadqiqotchi L.P.Grimak shunday yozadi: "insonning inson bo'lishining yana bir sababi shundaki, u o'ziga o'xshaganlar bilan faol muloqotda bo'lgan..., tug'ilishining ilk kunlaridan boshlab insonlar bilan doimiy muloqotda bo'lish..." [1].

Kommunikatsiya jarayonida pragmatik layoqat muhim sanaladi, negaki kishi hayotining har kuni, har soat va daqiqasida kirishiladigan muloqotning muhiti, kommunikati va maqsadiga ko'ra, eng samarali muqobil variantini topa bilish, til vositalaridan unumli foydalana olish kabi talablar ko'ndalang turadi. Shu talablar ijrosiga ko'ra natija, hosila olinadi. "So'z shuning uchun ham ulug'ki, - degan edi L.N.Tolstoy, - u odamlarni birlashtiradi. So'z bilan mehr-muhabbatga sazovor bo'lish mumkin. So'z bilan odamlarni ajratib yuborish ham mumkin. U tufayli dushmanlik va nafrat orttirib ham oladi, kishi. Odamlarni ajratib yuboradigan so'zdan zinhor saqlanib" [12]. Til dastlabki o'rinda, avvalo, so'zlovchining shaxsiy istagi, foydasi uchun xizmat qiladi. Tilning nutq ijodkori bilan bog'liq tomonlarini o'rganish muhim. Negaki, "biror bir tilda so'zlash oddiygina ushbu tildagi gaplarni tuzishdan iborat bo'lib qolmasdan, balki shu yo'sinda ma'lum turdagi ijtimoiy faoliyat ijrosidir" [3].

Tilshunos U.Rahimov o'z maqolasida kommunikativ muloqot va lingvistik kompetensiya ijtimoiy munosabat omili ta'sirida ham boyib borishi va kompetentlikning rivojlanib borishiga bir necha omillar ta'sir qilishi haqida o'z mulohazalarini bildirib o'tgan [9].

Pragmatik kommunikativ kompetensiya, shuningdek, o'quvchilarga muloqot muhitini his qilish, ulardagi o'zlari muvaqqat doxil bo'lib turgan bu muhit talab qiladigan uslubni to'g'ri tanlay bilish malakasidir. Bu malaka faqat **maxsus tashkil qilingan ta'lim shakllaridagina emas, ayni paytda** ko'proq spontan ta'lim muhitida shakllanadi. O'quvchilar jamiyat hayotini kuzatar ekanlar, kommunikativ vaziyatlarga ko'ra u yoki bu sotsiumning ijtimoiy roli o'zgarishi bilan nutqi ham muvofiq tarzda o'zgachalik kasb etishiga guvoh bo'ladi. Masalan, o'z o'qituvchilarining hayotdagi ijtimoiy rolga ko'ra, nutqlarining quyidagi shakllarda bo'lishini ko'rganlar: 1. Darsni tushuntirish jarayonida ilmiy nutq uslubidan foydalanadi. 2. Turli yig'inlarda rasmiy yoki publitsistik uslublarga murojaat qiladi. 3. Maktabdan, darsdan tashqari bo'ladigan kommunikativ vaziyatlarda kundalik-

maishiy uslubni qo'llaydi [10]. Ayni paytda guvoh bo'ladilarki, muallimlari har qanday vaziyatda ham o'z kasbiga xos bo'lgan ijtimoiy doira chegarasida so'zlaydi [6]. U kundalik-maishiy uslubni qo'llaganda ham o'qituvchi ekanligi bilinib turadi.

V.N.Komissarovning ta'kidlashicha, nutqiy muloqotda pragmatik munosabatlarning uchta turi ishtirok etadi. Bular birinchidan, axborotning manbayi (axborot uzatuvchi, gapiruvchi yoki yozuvchi) orqali ifodalanayotgan pragmatik munosabatlar bo'lib, bunday pragmatik munosabat axborot uzatuvchining maqsadini, uzatilayotgan axborotga shaxsiy munosabati va retseptorga nisbatan rejalashtirilgan ta'sirni o'z ichiga oladi. Pragmatik munosabatlarning ikkinchi turi lisoniy birlik ifodalayotgan pragmatik ma'noni qamrab olgan matnda (fikir, jumla) o'z ifodasini topadi. Uchinchi tur pragmatik munosabat axborotni qabul qiluvchi shaxsning (retseptor, tinglovchi, kitobxon) matn orqali anglagan axborotga pragmatik munosabatidir. Uning bunday munosabati axborotni idrok qilish jarayoni, bu axborotga yoki uning uzatuvchisiga munosabatida o'z aksini topadi [5].

Tilga oid umumiy kompetensiyalardan biri **axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi bo'lib, u** media manbalardan zarur ma'lumotlarni izlab topish, qayta ishlash, ulardan samarali foydalanish, media muloqot layoqatini shakllantirishni nazarda tutadi. Ushbu kompetensiyaning pragmatikasi mediya-ta'limni yo'lga qo'yish va mediya-madaniyatni tarbiyalash orqali shakllantiriladi. Bu ikki omil shaxsning ommaviy axborot vositalari (televideniye, radio, kino, pressa, internet matbuoti v.b.) orqali rivojlanishini ta'minlaydi. Mutaxassislar bunda quyidagilarga alohida qiymat beradilar: 1. Media matnlarni tahlil qilish, tanqidiy anglash va yaratish; 2. Media mahsulotlarning manbalarini (siyosiy, iqtisodiy, madaniy) topish, xususiyatlarini aniqlash va ularning asl ma'nosini o'rganish; 3. Media-mahsulotni tushunish; 4. Shaxsiy media-mahsulotlarni yaratish, tarqatish va ularga qiziqadigan auditoriyaga ega bo'lish; 5. O'rganish hamda yaratilgan mahsulotning hayot tarzini aniqlash [15].

Umumiy kompetensiyalar doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, mustaqil qaror qabul qila olish, o'qib-o'rganish kompetensiyasini egallashni nazarda tutadi. Ona tili ta'limida esa buni o'quvchilarning spontan hamda maxsus tashkil etilgan ta'lim orqali olingan bilim, egallangan ko'nikma va malakalarni o'zlarida shakllangan hayotiy tajribalar asosida o'zini o'zi rivojlantirishlari tarzida ifodalash mumkin. Ona tili predmetida o'zini jismoniy rivojlantirish vazifasi mantiqan uzoqday tuyuladi. Chunki bu maqsad jismoniy tarbiya, texnologiya darslari kabi jismoniy harakatlarga asoslangan predmetlar kompetensiya doirasiga kiradi degan qarash hammaga singgan. Aslida maktab ta'limidagi fan, predmetlar bu umumiy tayanch kompetensiyalarga o'z mazmun-mohiyati, maqsadi, fan spetsifikatsiyasi, ma'lum darajada imkoniyatidan kelib chiqib yondashishi kerak. Masalan, ona tili fanida o'quvchilarning ovoz tembri, akustika, so'zlash intonatsiyasi kabi o'zining fiziologik imkoniyatlar ustida ishlashlari, ularni takomillashtirishlari hamda vaqti kelganda ulardan unumli va o'rinli foydalanishlari tarzida tushunish va tushuntirish mumkin. Ona tiliga oid qo'shimcha ma'lumotlar, o'z tilining imkoniyatlari haqida kengroq tushuncha beruvchi kitoblarni mustaqil o'qib, o'rganish orqali ma'naviy, ruhiy yuksalish kuzatiladi. O'quvchi ko'z o'ngida tilga taalluqli o'zining jismoniy (fiziologik) imkoniyatlarining kashf etilishi, ma'naviy-ruhiy takomilga yo'naltirgan qo'shimcha bilim, ma'lumotlar uning intellektual va kreativ kamolotiga ham turtki beradi. Natijada erkin fikrlovchi, hayotiy vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qila oladigan (ya'ni pragmatik qobiliyatga ega) shaxs tarbiyasiga yo'l ochadi.

Umumiy tayanch kompetensiyalar sirasidagi ijtimoiy faollik kompetensiyasi o'zi yashayotgan jamiyat muammolariga daxldorlik, fuqarolik burchi va huquqlarini bilish, ularga rioya qilish, ijtimoiy muloqot va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Ona tili predmeti nuqtayi nazaridan jamiyat muammolariga daxldorlik ona tilining ijtimoiy nufuzi muammolariga e'tiborli bo'lish, uning jamiyatda o'ziga mos yuqori mavqeda o'rin tutishiga jonkuyarlik tuyg'usi bilan yashashdir. Bu bizning O'zbekiston sharoitida g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganiga 30 yildan ortiq vaqt bo'lishiga qaramay hamon ona tilimizning mavqeyi himoya ostida bo'lishdek nochor ahvolda. O'zbekiston xalqi o'zbek tilini e'zozlashni o'z fuqarolik burchlari deb bilishlari, bu tilning mamlakatdagi yuridik va ma'naviy huquqlarini ado etishlari shart. O'quvchilarda shakllantirilishi kerak bo'lgan ijtimoiy faol fuqarolik

kompetensiyasi shundagina pragmatik aspektda amalga oshadi. Ayni paytda bu kompetensiya tarkibida ijtimoiy muloqot madaniyati tushunchasi ham borki, pragmatik aspektda alohida o'rin tutadi. Muloqot madaniyatining shaxs faoliyati (u xoh kommunikant, xoh kommunikat bo'lsin) hamda jamiyatdagi faolligiga bevosita ta'siri bor.

Pragmalingvist J.Lich bu borada hurmat tamoyili tushunchasini taklif etadi va uning voqelanishi tamoyilning quyidagi oltita qoidasi faollashuvidan iborat ekanligini ta'kidlaydi:

1. Xushmuomalalilik, nazokat, odob qoidasi (suhbatdosh urinishlarini sarfini kamaytir, uning foydasini ko'paytirishga harakat qil).

2. Himmat, oliyjanoblik qoidasi (o'z foydangni kamroq ko'zla, barcha sarfni o'z zimmangga ol).

3. Ma'qullash, tahsin qoidasi (o'zgalarni yomonlama, g'iybat qilma, koyima).

4. Kamtarlik, kamsuqumlik, oddiylik qoidasi (o'z-o'zingni maqtashni keskin kamaytir).

5. Rizolik, murosasozlik qoidasi (tortishuvlardan qoch, murosaga urin).

6. Xush ko'rish, mayl, yoqtirish qoidasi (xayrixoh, oqko'ngilli bo'l) [7].

Milliy va umummadaniy kompetensiya ham umumiy tayanch kompetensiyalardan biri bo'lib, u vatanga sadoqatli, insonga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy, milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Zohiran qaraganda bu o'rinda sanalgan ma'naviy sifatlar o'quvchilarga ona tili o'qitish asnosida dars materiallari orqali singdiriladi degan ko'zqarash tushuniladi. Bu to'g'ri, albatta. Darsda qoida va ta'riflarni asoslash uchun keltiriladigan jumlar, mashg'ulot davomida bajariladigan topshiriq va mashqlar ushbu maqsadga yo'naltirilishi lozim. Pragmatik aspektda qaraladigan bu sifatlarning botiniy jihati bevosita ona tiliga munosabat bilan bog'liqdir. Insonga berilgan til ne'mati umuminsoniy qadriyat, Navoiy ta'biri bilan aytganda, "Insonni so'z ayladi judo hayvondin". Ana shu buyuk qadriyatning qadriga yetish shukronalik bilan yashashga undaydi. Ona tili esa milliy qadriyat bo'lib, milliy o'zligimiz asosini tashkil etadi. Unga eng oliy ehtirom e'tiqodida bo'lish milliy va umummadaniy kompetensiya negizini tashkil qiladi. Kishining badiiy adabiyotni, san'atni tushunishi ham ona tili imkoniyati, qudrati va nafosatini his etishi darajasiga ma'lum darajada bog'liqligini hech kim inkor etmasa kerak. Sog'lom turmush tarzi tushunchasi o'laroq ko'p holatlarda zararli odatlardan xoli bo'lish ma'nosida qo'llaniladi. Til ta'limi nuqtayi nazaridan esa sog'lom turmush tarzi tilning sofligiga rioya qilish, til sofligiga putur yetkazadigan omillarni bartaraf etish, o'zaro muloqotda "ommaviy madaniyat"ga doir unsurlarga berilmaslik kabilarni o'z ichiga oladi. Bu orqali nutq madaniyati malakasiga erishgan, ona tiliga oliy qadriyat sifatida munosabatda bo'ladigan, muomalada chetdan bo'ladigan salbiy ta'sirlarga kommunikativ immunitetli, bir so'z bilan aytganda, muloqotda pragmatik kompetentlikka ega shaxs tarbiyalanadi.

Bu siradagi oxirgi – matematik savodxonlik, fan-texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy reja tuza olish, diagramma, chizma va modellarni o'qish, fanga oid innovatsion texnologiyalardan foydalanish layoqatini shakllantirishni nazarda tutadi. Bu kompetensiya orqali o'quvchi maqsadi, manfaati, imkoniyatidan kelib chiqib, kunlik, haftalik shaxsiy reja tuzishni o'rganadi, fanga doir diagramma, chizma va jadvallar tuzadi, shartli belgilar orqali tushunchalarni, voqeliklarni umumlashtirish, ifodalash layoqatini qo'lga kiritadi.

Ushbu faslda keltirilgan misollar va qilingan tahlillardan xulosa qilish mumkinki, pragmatika boshqa fanlar kabi ona tili predmetini o'qitishda fanga doir kompetensiyalarni, shuningdek, umumiy tayanch kompetensiyalarni amaliyotga, hayotga yaroqliligini ta'minlovchi tayanch nuqtadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Гримак Л.П. Общение с собой: Начала психологии активности. – Москва: "Политиздат", 1991. – С. 3.

2. Иссерс О.С. Проблемы создания "коммуникативного портрета": тендерный аспект // Гендер: язык, культура, коммуникация. – Москва, 2002. Вып. 2. С.173

3. Kanngisser S. Sprachkldningen und Sprachbeschreibungen. In: Wissenschaftstheorieder Linguistik. Hisg.: Wunderlich D. –Kronberg, 1976. – P.160. 125-p.
4. Казарсева О.М. Култура речевого общения: Теория и практика обучения. – Тошкент: “Флинта-наука”, 1999. – С. 183.
5. Комиссаров В.Н. Современное переводоведение. – Москва: ЭТС, 2004. – С. 424. 226-b.
6. Крысин Л.П. Речевые общение и сотсиальные роли коммуникантов // Сотсиолингвистические аспекты изучения современного русского языка. – Москва: “Наука”, 1989. – С. 142.
7. Leech G. Principles of pragmatics. – London, 1983. – P. 250. P.104-142
8. Nurmonov A., Ziyodullayeva G. O‘quvchilarning til kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish muammolari // Ma’rifat, 2014, 18 iyul. –B.9.
9. Rahimov U., Maxammadjonov N. Kompetentlik va pragmatika // Andijon davlat universiteti Ilmiy xabarnomasi – Andijon, 2019.-№12.–B.93.
10. Rasulov Q.A. O‘zbek muloqot xulqining funksional xoslanishi. Fil. fan. nomz. disser. – Toshkent, 2008. 24-b.
11. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2008. 25-b.
12. Сборник. Русское писатели о языке. – Ленинград, 1954. – С. 285.
13. Хелл Л., Зиглер Д. Теории личности. – СПб.: Питер, 1999. – С. 265.
14. Шаховский В.И., Жура В.В. Дейксис в сфере эмотсиональной речевой деятельности // Вопросы языкознания, 2002, – № 5 – С. 38-56.
15. <http://uz.infocom.uz/2015/12/14/media-ta'limning-asosiy> tushunchalari.

TALABALAR MUSTAQIL ISHINI TASHKIL ETISH BO‘YICHA NAZARIY YONDASHUVLAR TAHLILI

R.X.Jumayev,
Buxoro davlat pedagogika instituti dotsenti,
f.f.f.d.(PhD)

Talabalarning mustaqil ish faoliyatini samarali tashkil etish masalasi oliy ta’limda dolzarb metodik va pedagogik muammolardan biri hisoblanadi. Bu borada nazariy yondashuvlar muayyan davrning ijtimoiy ehtiyojlari, ta’lim paradigmasi va pedagogik konsepsiyalariga asoslanadi. Quyida ushbu yondashuvlarning asosiy turlari va ularning tahlili keltiriladi:

1. An’anaviy yondashuv (reproduktiv yondashuv).

An’anaviy yoki reproduktiv yondashuvda talabalar mustaqil ishi o‘qituvchining bergan topshiriqlarini bajarish, ya’ni tayyor bilimlarni eslab qolish, ko‘chirish, takrorlash yoki mashq qilish shaklida tashkil etiladi. Bu modelda asosiy e’tibor — bilimlarni qayta ishlab chiqarishga (reproduksiya qilishga) qaratiladi.

Ta’lim mazmuni avvaldan belgilangan va qat’iy struktura asosida taqdim etiladi. Talabaning vazifasi — o‘qituvchining bergan topshiriqlarini aniq va to‘g‘ri bajarish. O‘qituvchi — bilim manbai, nazorat qiluvchi va baholovchi sifatida faol ishtirok etadi. Ijodkorlik va tanqidiy fikrlash ikkinchi planga suriladi. Ko‘p hollarda nazorat savollari, referatlar, an’anaviy yozma ishlarga tayaniladi.

Afzalliklari: Tashkiliy jihatdan oddiy: O‘qituvchi uchun topshiriq tuzish va natijani baholash oson.

Standartlashtirilgan: Talabalar uchun aniqlik mavjud; mezonlar barqaror.

Boshlang‘ich bosqichlarda foydali: Tayanch bilimlarni shakllantirishda qo‘llanishi mumkin.

Kamchiliklari:

Ijodiy fikrlash rivojlanmaydi: Talaba mustaqil yechim izlamaydi, tayyor bilimni qabul qiladi.

Passiv o‘quv faoliyati: Talaba faqat “iste’molchi” bo‘lib qoladi, faol ishtirok qilmaydi.

Motivatsiya past: Shaxsiy qiziqish, o‘zini namoyon qilish imkoniyati cheklangan.

Amaliy kompetensiyalar shakllanmaydi: Real muammolarni hal qilish ko‘nikmalari yetishmaydi.

MASHQLAR ORQALI KOMMUNIKATIVLIK QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH	223
Asadova Zarina Axmadovna. MASOFAVIY TA'LIMDA TALABALARNING MUSTAQIL O'RGANISH KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	224
Sadullayeva Zarnigor To'liqjonovna. ZAMONAVIY TALABA SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA O'Z-O'ZINI TARBIYALASHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK OMILLARI.....	227
Ozodova Madina Hamza qizi. O'QUVCHILARNING MULOQOT KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISHDA IJODIY TAFAKKURNING O'RNI	230
Nuraliyeva Kamola Isaqali qizi. BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINI JAMOA ORQALI LIDERLIK KO'NIKMAALARINI SHAKLLANTIRISH.....	235
Olloqova O'g'iljon Mamanazarovna. ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING PRAGMATIK KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILY-METODIK ASOSLARI.....	237
R.X.Jumayev. TALABALAR MUSTAQIL ISHINI TASHKIL ETISH BO'YICHA NAZARIY YONDASHUVLAR TAHLILI.....	241
Sulaymonova Muhiba Boltayevna. TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	243
Nutfulloyeva Zarnigor Sa'dullo qizi. 16–17 ASRLARDA MUDARRIS TAYYORLASH TIZIMINING DEONTOLOGIK YONDASHUV ASOSIDAGI ILMIY-AXLOQIY TAMOIYILLARI.....	245
Nuritdinova Marjona Isog'ali qizi. IJODIY YONDASHUVLAR ASOSIDA TALABALARDA ANALITIK FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH	248
Djurayeva Salomat Nabiyevna. BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITISHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH USULLARI.....	249
G.X.Shodiyeva, M.R.Ravshanova. INNOVATSION-INTEGRATSION TA'LIM JARAYONINI XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA TASHKIL ETISH	254
Otanazarova Mohira Xamidbekovna. BOSHLANG'ICH TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIGA IXTISOSLIK FANLARINI O'QITISH ORQALI KASBIY SIFATLARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	256
Azimova Kamola Karimovna. JADID MA'RIFATPARVARLARINING G'OYALARINI O'QITISHDA YANGI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH	261
Akmalova Mehrangiz Azmiddin qizi, Himoyeva Sarvarbegim Jamilovna. BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINI IJODIY QOBILIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH METODIKASI .	263
Ibrohimova Mohichehra Furqat qizi. BOSHLANG'ICH SINFLARDA MANTIQUIY TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI.....	265
Farxodova Dilnoza Quadrat qizi. TALABALARDA 4K TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHGA O'RGATISH.....	267
Hamidova Laylo Kamildjonovna. TA'LIM JARAYONIDA "FLIPPED LEARNING" TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI	269
Nurumbekova Yarkinay Anarmatovna. KOUCHINGDA QO'LLANILADIGAN ENG SMARALI M MODELLAR TAHLILI	271
Садуллоева Махфуза Гайбуллоевна. МНОГООБРАЗИЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ СРЕД В СОВРЕМЕННОЙ ПЕДАГОГИКЕ.....	276
Садуллоева Махфуза Гайбуллоевна, Усякина Дарья Игоревна. ОСОБЕННОСТИ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО КОЛЛЕКТИВА С СЕМЬЯМИ ВОСПИТАННИКОВ	279
Ismatova Halovat Baxtiyorovna. DESTRUKTIV XULQ: SABABLARI, OQIBATLARI VA OLDINI OLISH YO'LLARI	282
Tog'ayeva Umida Shavqi qizi. BOSHLANG'ICH SINFLAR ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O'QUVCHILARNING TANQIDIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI	286